

ABUL BARAKOT NASAFIYNING ILMIY MEROSLARI VA XUSUSAN “TAFSIRUN NASAFIY” ASARI

*Xamidullayev No‘monxon
Imom Buxoriy nomidagi
Toshkent islam instituti talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada mo‘g‘ullar istilosini davrida yashagan, hanafiy fiqh va moturidiy aqida yo‘nalishining yetuk vakillaridan biri bo‘lgan alloma Abul Barakot an-Nasafiyning ilmiy merosi o‘rganiladi. Uning kalom, fiqh va tafsir sohalariga oid muhim asarlari, xususan “Madorik at-Tanzil va Haqoq at-Ta‘vil” nomli tafsiri alohida tahlil qilinadi. Ushbu tafsir asari hanafiylik va ahli sunna ta’limotiga asoslangan bo‘lib, unda Zamaxshariyning “Kashshof” va Bayzoviy tafsirlaridan tanlab olingan jihatlar, ammo mo‘taziliy yondashuvlardan holi uslub qo‘llanilgan. Muallif Qur‘on oyatlarini fiqhiy, tilshunoslik va kalomiy jihatdan izohlab, tafsirni mo‘tadil, ixcham, isroiliylardan pok va ilmiy yondashuvga asoslangan holda yozgan. Shuningdek, maqolada Abul Barakot Nasafiyning boshqa mashhur asarlari va ulamolar tomonidan berilgan ta’riflar ham bayon etilgan. Bu maqola tafsir ilmi rivojiga qo‘shilgan boy ilmiy merosni ochib berish barobarida, hanafiy tafsir maktabining o‘ziga xos jihatlarini ham yoritadi.

Kalit so‘zlar: Abul Barakot an-Nasafiy, Madorik at-Tanzil, Tafsir an-Nasafiy, hanafiy mazhabi, moturidiy aqida, tafsir ilmi, Kashshof, Bayzoviy, ahli sunna val jamoa, fiqh, kalom, Qur‘on tafsiri, mo‘g‘ullar davri, isroiliyat, qiroatlar, tafsir uslubi.

Nasafdan yetishib chiqqan ulug‘ olimlardan biri Abul Barakot Nasafiy o‘zining tafsir, fiqh, aqida sohalariga oid asarlari bilan mashhur bo‘lgan. U tug‘ilib, yashagan payt mo‘gullar hukmronligi davri bo‘lganligi uchun Movarounnahrda ilmiy, madaniy va iqtisodiy holat tanazzulga tushib qolgan edi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan Abul Barakot Nasafiy kabi fidoiy olimlar ilmni jonlantirishga va qayta tiklashga harakat qilganlar¹. Abul Barakot Nasafiyning turli sohalardagi asarlari;

“Al-Musaffo fi sharh al-manzuma an-Nasafiya” (“an-Nasafiy nazmining musaffo sharhi ”) – ilmi kalomga oid;

“Al-Mustasfo fi sharh al-fiqh an-nofi” (“Tanlangan foydali fiqh sharhi”) – islom huquqshunosligiga oid;

“Umdat al-aqoid” (“Aqidalar asosi”) – kalom ilmiga oid.

Abul Barakot Nasafiyning tafsir ilmi bo‘yicha ahli ilm orasida “Tafsir an-Nasafiy” nomi bilan mashhur bo‘lgan va hanafiy mazhabiga muvofiq bitilgan “Madorik at-tanzil va haqoq at-ta‘vil” (Qur‘on ma’nolari va ta‘vil haqiqatlari) kitobi boshqa asarlar orasida eng

¹ Uvatov U. Yurtimiz allomalari. – Toshkent: Nihol, 2014. – B. 98.

qimmatlilaridan biri desak, hech ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki boshqa tafsir kitoblari orasida katta shuhrat qozongan “Tafsir an-Nasafiy” kitobi dunyo bo‘yicha eng keng tarqalgan hanafiy mazhabiga binoan yozilgan, undagi oyatlar aynan moturidiya ta’limotiga binoan bayon etilib, o‘sha davrning ilm markazlari Buxoro va Samarcandning olimlari fikrlari bilan boyitilgandir. Bu asarni yozishda Nasafiy Zamaxshariyning “al-Kashshof an haqoqi-t tanzil”, Bayzoviyning “Anvorut-tanzil va asrorut-ta’vil” va boshqa tafsirlardan foydalangan².

Alloma Laknaviy Abul Barakot Nasafiy 1310-yilda Bag‘dodga kelgani, mudarrislik qilgani va shu yerda vafot qilganlini aytib o‘tgan³. 1310-yili rabi al-avval oyining juma kuni kechasi Bag‘dodda vafot etgan hamda Isfahon yaqinidagi Izaj shahrida (Xuziston va Isfahon oralig‘ida) dafn qilingan.

Quyida ushbu buyuk imom haqida ba’zi ulamolarning fikrlari keltiramiz: Imom Laknaviy uni shunday ta’riflagan: “Komil imom, zamonasining ziyrak olimlaridan, fiqhda asosiy manbalarga amal qilgan, hadis va uning ma’nolarida yetuk olim”⁴.

Imom Ibn Hajar uni “dunyoning allomasi”⁵ deb atagan.

Ibn Kamol Pasha uning yuksak ilmiy maqomi haqida shunday degan: “U mutaqaddim faqihlar va muhaqqiqlar qatorida yuqori mavqega ega bo‘lib, zaif va mavzu’ hadislarni o‘z asarlarida keltirmagan, balki mustahkam dalillarga tayangan”. Shuningdek, u shunday degan: “Ijtihad eshigi u kishi bilan yopilgan, undan keyin hech bir mazhabda yangi mujtahid kelmagan”⁶.

Abul Barakot Nasafiyning bir qator asarlari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Nasafiy tafsiri ta’rifi va muallifining undagi uslubi

Bu tafsirni Imom Nasafiy (rohimahulloh) “Tafsirul Bayzoviy” va Zamaxshariyning “Kashshof” tafsirlaidan muxtasar qilib olgan. Lekin u Kashshofdagi mo‘tazila e’tiqodidagi fikrlarni tashlab, Ahli sunna val Jamoa mazhabiga ko‘ra ta’lif qilgan. Bu tafsir uzun tafsirlar bilan qisqa tafsirlar orasidagi o‘rtacha tafsirdir. Bu tafsirda Imom Nasafiy (rohimahulloh) qiroat va tarkib qoidalari o‘rtasidagi vajhlarni jamlagan. Bunga Kashshofda kelgan balog‘at qoidalari va yashirin nozik ma’nolarni kashhf etishdan iborat bo‘lgan bir qancha narsalarni ham kiritgan. Shu bilan birga, Zamaxshariy o‘z tafsirida qo‘llagan savol va javoblarni ham keltirgan. Lekin imom Nasafiy rahmatullohi alayh o‘zining bu tafsirida oyatlarni asos qilib olgan. Shuning uchun “Kashshof”ning

² Abul Barakot an-Nasafiy. Kanz ad-daqqiq. – Madina: Dorus siroj, 2001 – B. 29.

³ Abul Barakot an-Nasafiy. Kanz ad-daqqiq. – Madina: Dorus siroj, 2001 – B. 13.

⁴ Abdulhay Laknaviy. Favoidul bahiyya. – Bayrut: Matba’atus sa’oda, 1998. – B. 101.

⁵ Ibn Xajar Asqaloniy. Durarul kamina. – Haydarobod: Maorif Usmoniya, 1994, – J. 1. – B. 17.

⁶ Abdulhay Laknaviy. Favoidul bahiyya. – Bayrut: Matba’atus sa’oda, 1998 – B. 101-102.

sohibi suralarning fazilati haqida mavzu' hadislarni keltirganidek u kishi mavzu' hadislarni keltirmagan. Imom Nasafiy (rohimahulloh) grammatik qoidalarga chuqr kirmay, balki yengil to'xtalib o'tgan. Mutavotir yetti qiroatni lozim tutib, har bir qiroatni o'z qorisiga nisbatini bergen. Hukm oyatlarning tafsirida fiqhiy mazhablarga qisqacha to'xtalib o'tgan. Har bir mazhab keltirgan fikrlarni qisqacha bayon qilib, asosan, ko'pincha o'zining hanafiy mazhabini qo'llab-quvvatlagan. Mazhabiga muxolif kelganlarga raddiyalar bergen. Bu tafsirda Isroiliyot rivoyatlarining zikri kamdan-kam uchraydi. Shunda ham bunday rivoyatlarni keltirib turib, so'ngra rad qiladi.

Darhaqiqat, imom Nasafiy (rohimahulloh) o'z tafsirining avvalida qisqa bir iborani keltirib, unda o'zining bu tafsirini yozishdagi yo'nalishi va uslubini bayon qilib, jumladan, shunday deydi: "Tafsir ilmida qiroat va tarkib vajhlarini jamlagan, «Badi' va ishorat» ilmining nozik jihatlarini o'z ichiga olgan, Ahli sunnat val jamoatning so'zlari bilan bezalgan, bid'at va zalolat ahlining botil fikrlaridan xoli bo'lgan, malol keladigan darajada juda uzun bo'lмаган va xalal beradigan darajada juda qisqa bo'lмаган, о'rtacha bir kitobni yozdim».

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Uvatov U. Yurtimiz allomalari. – Toshkent: Nihol, 2014. – B. 98.
2. Abul Barakot an-Nasafiy. Kanz ad-daqoiq. – Madina: Dorus siroj, 2001 – B. 29.
3. Abul Barakot an-Nasafiy. Kanz ad-daqoiq. – Madina: Dorus siroj, 2001 – B. 13.
4. Abdulhay Laknaviy. Favoidul bahiyya. – Bayrut: Matba'atus sa'oda, 1998. – B. 101.
5. Ibn Xajar Asqaloniy. Durarul kamina. – Haydarobod: Maorif Usmoniya, 1994, – J. 1. – B. 17.
6. Abdulhay Laknaviy. Favoidul bahiyya. – Bayrut: Matba'atus sa'oda, 1998 – B. 101-102.